

## XALQARO HUQUQ VA IQLIM O'ZGARISHI: GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI

## МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО И ИЗМЕНЕНИЕ КЛИМАТА: ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С ГЛОБАЛЬНЫМИ ЭКОЛОГИЧЕСКИМИ ПРОБЛЕМАМИ

## INTERNATIONAL LAW AND CLIMATE CHANGE: LEGAL MECHANISMS FOR COMBATING GLOBAL ENVIRONMENTAL CHALLENGES

**Komilov Shohjahon Komilovich**

**Toshkent davlat yuridik universiteti magistri**

**Email: shohjahonkomilov7202@gmail.com**

**Tel: +998940107202**

**Комилов Шохжахон Комилович**

**Магистр Ташкентского государственного  
юридического университета**

**Komilov Shokhjakhon Komilovich**

**Master's student at Tashkent State University of Law**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19815663>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqlim o'zgarishining xalqaro huquq tizimidagi o'rni, uning ekologik xavfsizlikka ta'siri va unga qarshi kurashning asosiy huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda 1992-yildagi Doiraviy konvensiya, 1997-yildagi Kioto protokoli va 2015-yildagi Parij kelishuvining mazmuni, shuningdek davlatlarning tabaqalashtirilgan javobgarligi, barqaror rivojlanish, iqlim moliyalashtiruvi va xalqaro hamkorlik masalalari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro normalarni milliy qonunchilikka joriy etish va mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquq, iqlim o'zgarishi, ekologik xavfsizlik, global isish, Parij kelishuvi, Kioto protokoli, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi, barqaror rivojlanish, iqlim adolati, ekologik javobgarlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются место изменения климата в системе международного права, его влияние на экологическую безопасность и основные правовые механизмы противодействия данной угрозе. Рассматриваются содержание Рамочной конвенции 1992 года, Киотского протокола 1997 года и Парижского соглашения 2015 года, а также вопросы дифференцированной ответственности государств, устойчивого развития, климатического финансирования и международного сотрудничества. Кроме того, обосновывается необходимость имплементации международных норм в национальное законодательство и совершенствования действующих правовых механизмов.

**Ключевые слова:** международное право, изменение климата, экологическая безопасность, глобальное потепление, Парижское соглашение, Киотский протокол, Рамочная конвенция ООН об изменении климата, устойчивое развитие, климатическая справедливость, экологическая ответственность.

**Abstract.** This article analyzes the role of climate change in the system of international law, its impact on environmental security, and the main legal mechanisms for addressing this threat. It examines the content of the 1992 Framework Convention, the 1997 Kyoto Protocol, and the 2015 Paris Agreement, as well as the issues of differentiated state responsibility, sustainable development, climate finance, and international cooperation. In addition, it substantiates the need to implement international norms into national legislation and to improve the existing legal mechanisms.

**Keywords:** international law, climate change, environmental security, global warming, Paris Agreement, Kyoto Protocol, UN Framework Convention on Climate Change, sustainable development, climate justice, environmental responsibility.

**Kirish.** XXI asrda insoniyat oldida turgan eng murakkab va keng qamrovli tahdidlardan biri — bu iqlim o'zgarishidir. Mazkur hodisa endilikda faqat tabiiy-ilmiy yoki ekologik muammo sifatida emas, balki iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, gumanitar va huquqiy oqibatlariga ega bo'lgan global xavfsizlik masalasi sifatida qaralmoqda. Iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan global isish, muzliklarning erishi, cho'llanish, bioxilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, qurg'oqchilik, suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari va boshqa ekologik ofatlar inson hayoti, sog'lig'i, oziq-ovqat xavfsizligi hamda barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid solmoqda.

Mazkur muammoning asosiy xususiyati shundaki, u biror bir davlatning hududi yoki yurisdiksiyasi bilan cheklanmaydi. Atmosferaga chiqarilgan issiqxona gazlari barcha mintaqalarga ta'sir etadi, bir hududda sodir bo'lgan ekologik zarar boshqa hududlarda ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli iqlim o'zgarishiga qarshi kurash masalasi xalqaro huquqning alohida va ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishini huquqiy tartibga solish jarayonida davlatlarning hamkorligi, xalqaro tashkilotlarning institutsional roli, ekologik majburiyatlar mazmuni, nazorat mexanizmlari va javobgarlik institutining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi:** Iqlim o'zgarishi va xalqaro huquq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi zamonaviy yuridik adabiyotda keng tadqiq etilayotgan yo'nalishlardan biridir. Ilmiy manbalarda iqlim o'zgarishining huquqiy oqibatlari, davlatlar majburiyatlarining mazmuni, ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati atroflicha yoritilgan. Xalqaro ekologik huquqda ushbu masala asosan 1992-yildagi BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiyasi, 1997-yildagi Kioto protokoli va 2015-yildagi Parij kelishuvi orqali izohlanadi. Mazkur hujjatlar xalqaro iqlim huquqining bosqichma-bosqich rivojlanishini aks ettiradi: Doiraviy konvensiya umumiy majburiyatlarni belgilagan bo'lsa, Kioto protokoli ayrim davlatlar uchun aniq majburiy ko'rsatkichlarni joriy etdi, Parij kelishuvi esa universal ishtirok va milliy hissalar mexanizmini shakllantirdi.

Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, "umumiy, ammo tabaqalashtirilgan javobgarlik" tamoyiliga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu tamoyil rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tarixiy emissiya hajmi hamda iqtisodiy imkoniyatlar farqini hisobga olishga asoslanadi. Shu bilan birga, iqlim adolati konsepsiyasi ham muhim o'rin tutib, unda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlaridan ko'proq zarar ko'rayotgan davlatlar ko'pincha tarixan kam emissiya qilgan mamlakatlar ekani ta'kidlanadi. Ayrim tadqiqotchilar xalqaro iqlim huquqining zaif tomoni sifatida uning ko'proq "yumshoq huquq" mexanizmlariga tayanishini ko'rsatsalar, boshqalar uning samaradorligini shaffoflik, monitoring, hisobot berish, moliyaviy ko'mak va texnologiya transferi kabi hamkorlik mexanizmlarida deb baholaydi. Shuningdek, iqlim migratsiyasi,

ekologik zarar uchun kompensatsiya, “loss and damage” mexanizmi hamda inson huquqlari bilan bog‘liq masalalar ham bugungi ilmiy tadqiqotlarda dolzarb yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Avvalo, formal-yuridik usul yordamida xalqaro ekologik huquqning normativ manbalari va ularning mazmuni o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil asosida BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv xalqaro iqlim huquqining institutlari, tamoyillari va subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ochib berishda qo‘llanildi. Analiz va sintez usuli yordamida muammo bo‘yicha nazariy qarashlar umumlashtirildi va amaliy takliflar shakllantirildi.

Bundan tashqari, xalqaro huquqiy manbalar, ilmiy adabiyotlar, ekologik boshqaruvga doir konseptual hujjatlar va milliy qonunchilikdagi normalar ham tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqildi. Tadqiqotning asosiy e‘tibori iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashning aynan huquqiy mexanizmlari, ularning samaradorligi va istiqbollari qaratildi.

**Iqlim o‘zgarishi — global ekologik muammo sifatida:** Iqlim o‘zgarishi tabiiy jarayonlar natijasi bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, bugungi kundagi keskin o‘zgarishlarning asosiy sababi antropogen omillar, ya‘ni inson faoliyati ekanligi tan olingan. Ayniqsa, ko‘mir, neft va gaz kabi qazilma yoqilg‘ilardan keng foydalanish natijasida karbonat angidrid, metan va azot oksidi kabi issiqxona gazlari konsentratsiyasi ortib bormoqda. Bu esa “issiqxona effekti”ni kuchaytirib, o‘rtacha global haroratning oshishiga olib kelmoqda. Iqlim o‘zgarishining oqibatlari ko‘p qirrali bo‘lib, ular ekologik tizimlar bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi qishloq xo‘jaligi hosildorligini pasaytiradi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi muammosini kuchaytiradi. Dengiz sathining ko‘tarilishi orol va qirg‘oqbo‘yi hududlarini xavf ostida qoldiradi. Tabiiy ofatlar sonining ko‘payishi esa infratuzilmaga, aholi salomatligiga va iqtisodiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazadi. Shu ma‘noda, iqlim o‘zgarishi endilikda faqat ekologik masala emas, balki inson huquqlari, rivojlanish huquqi va xalqaro xavfsizlik bilan bog‘liq kompleks muammoga aylanib bormoqda.

**Xalqaro ekologik huquqning asosiy tamoyillari:** Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda xalqaro huquqning bir qator fundamental tamoyillari muhim rol o‘ynaydi. *Ulardan birinchisi* — barqaror rivojlanish tamoyili. Mazkur tamoyil iqtisodiy taraqqiyot ekologik manfaatlarga zid bo‘lmagan tarzda olib borilishi lozimligini anglatadi. Bunda bugungi avlod ehtiyojlarini qondirish kelajak avlodlarning manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak. *Ikkinchi muhim tamoyil* — ehtiyotkorlik tamoyili. Ushbu tamoyilga ko‘ra, ekologik zararning aniq miqyosi to‘liq isbotlanmagan bo‘lsa ham, uning jiddiy xavfi mavjud bo‘lsa, davlatlar oldini oluvchi choralarni ko‘rishi shart. Iqlim o‘zgarishi masalasida aynan shu tamoyil asosida ko‘plab profilaktik choralar ishlab chiqilgan. *Uchinchi tamoyil* — umumiy, ammo tabaqalashtirilgan javobgarlik tamoyili. Bu tamoyil xalqaro iqlim huquqining markaziy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, barcha davlatlar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda umumiy javobgarlikka ega, biroq ularning tarixiy emissiya hajmi, iqtisodiy salohiyati va texnologik imkoniyatlari turlicha bo‘lganligi sababli majburiyatlar ham turlicha bo‘lishi mumkin. *To‘rtinchi tamoyil* — transchegaraviy zarar yetkazmaslik prinsipi. Xalqaro huquqqa ko‘ra, har bir davlat o‘z yurisdiksiyasi doirasidagi faoliyat orqali boshqa davlatlar hududi yoki global umumiy

resurslarga sezilarli zarar yetkazmasligi lozim. Iqlim o'zgarishi aynan mana shu prinsiplarga yangi mazmun bag'ishlaydi, chunki emissiyalar butun atmosfera tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

**Davlatlarning majburiyatlari va iqlim adolati masalasi:** Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda davlatlar o'rtasidagi majburiyatlar taqsimoti murakkab masala hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tarixan ko'proq emissiya qilgan, sanoatlashuvdan katta foyda ko'rgan va moliyaviy-texnologik imkoniyatlarga ega bo'lgan subyektlar sifatida ko'proq mas'uliyatni zimmasiga olishi kerakligi keng e'tirof etiladi. Rivojlanayotgan davlatlar esa iqtisodiy o'sish va kambag'allikka qarshi kurashish ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga nisbatan yumshoqroq va qo'llab-quvvatlovchi yondashuv talab etiladi. Iqlim adolati tushunchasi aynan mana shu nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan. Bu tushuncha nafaqat davlatlararo adolatni, balki avlodlararo adolatni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni hozirgi avlodlar tomonidan amalga oshirilayotgan ekologik zarar kelajak avlodlarning hayot sifati va rivojlanish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Mazkur masala ayniqsa orol davlatlari, qurg'oqchil hududlar va kam rivojlangan mamlakatlar misolida yaqqol ko'rinadi. Ular iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlaridan jiddiy zarar ko'rmoqda, biroq tarixiy emissiyalardagi ulushi juda kam. Shu sababli iqlim moliyalashtiruv, zarar va yo'qotishlar uchun kompensatsiya, moslashuvga ko'maklashish kabi mexanizmlar xalqaro huquqning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

**Iqlim o'zgarishi va inson huquqlari:** So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi muammosi inson huquqlari bilan bevosita bog'liq holda talqin qilinmoqda. Chunki iqlim inqirozi hayot huquqi, sog'liqni saqlash huquqi, yetarli oziq-ovqat va toza suvdan foydalanish huquqi, yashash joyiga ega bo'lish huquqi kabi fundamental huquqlarga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Masalan, suv toshqinlari yoki qurg'oqchilik natijasida aholi yashash joyini tark etishga majbur bo'lishiga olib keladi. Bu esa iqlim migratsiyasi muammosini yuzaga keltiradi. Amaldagi xalqaro huquqda "iqlim qochqinlari" tushunchasi hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, mazkur masalaning dolzarbligi ortib bormoqda. Kelajakda xalqaro huquq iqlim tufayli ko'chirilgan shaxslarning huquqiy maqomini aniqroq belgilashi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim xalqaro va milliy sudlarda iqlim o'zgarishi bo'yicha da'volar soni ortmoqda. Bu holat iqlim huquqining sud nazorati va huquqiy himoya mexanizmlari orqali mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Demak, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash endilikda faqat davlatlararo muzokara darajasida emas, balki sud-huquqiy maydonda ham rivojlanmoqda.

Shuningdek, xalqaro huquqiy mexanizmlarning mavjud muammolari haqida gaplashadigan bo'lsak, amaldagi xalqaro iqlim huquqining asosiy muammolaridan biri uning ijro mexanizmlarining nisbatan sustligidir. Davlatlar majburiyatlarni bajarmagan hollarda qat'iy sanksiyalar tizimi yo'qligi xalqaro shartnomalarning amaliy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha davlatlar siyosiy manfaatlar, iqtisodiy o'sish ehtiyojlari yoki ichki siyosiy holat sabab emissiyalarni qisqartirish bo'yicha yetarli choralarni ko'rmaydi. Yana bir muammo — global iqlim boshqaruvida siyosiy ixtiloflarning kuchliligi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida moliyaviy majburiyatlar, tarixiy javobgarlik, texnologiya almashinuvi va iqtisodiy yuklama yuzasidan doimiy kelishmovchiliklar mavjud. Bu esa umumiy kelishuvlarga erishishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi bo'yicha majburiyatlarning huquqiy va siyosiy tabiatini aniq chegaralash ham oson emas. Ayrim normalar qat'iy huquqiy majburiyat sifatida talqin qilinsa, boshqalari ko'proq siyosiy-da'vogar xarakterga ega. Natijada

xalqaro iqlim huquqi “hard law” va “soft law” elementlari o‘rtasidagi murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, iqlim o‘zgarishi zamonaviy xalqaro huquqning eng dolzarb va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo ekologik xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot, xalqaro adolat, inson huquqlari va davlatlararo hamkorlik kabi ko‘plab institutlar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli unga qarshi kurashish faqatgina ekologik siyosat doirasida emas, balki mukammal xalqaro-huquqiy mexanizmlar asosida olib borilishi lozim. BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi Doiraviy konvensiyasi, Kioto protokoli va Parij kelishuvi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashning huquqiy poydevorini yaratdi. Ular davlatlarning majburiyatlarini belgilash, xalqaro muzokaralar platformasini shakllantirish, iqlim moliyalashtiruv va shaffoflik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynadi. Biroq amaldagi tizimda nazoratning sustligi, majburiyatlarning yetarli darajada bajarilmasligi, javobgarlik institutining aniq emasligi va moliyaviy ko‘makning cheklangani kabi qator kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Shu bilan birga, yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berib o‘tmoqchiman:

Birinchidan, Xalqaro iqlim huquqida nazorat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Amaldagi xalqaro iqlim-huquqiy tizimda davlatlar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi ustidan samarali nazorat mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bois emissiyalarni qisqartirish, hisobot berish va majburiyatlarni bajarmaganlik uchun xalqaro javobgarlik choralarini yanada aniq belgilash maqsadga muvofiq boladi.

Ikkinchidan, Rivojlanayotgan davlatlar uchun iqlim moliyalashtiruv va texnologiya transferi kafolatlarini mustahkamlash zarur. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda rivojlanayotgan davlatlarning imkoniyatlari cheklanganligi sababli ularga moliyaviy, texnik va institutsional ko‘mak ko‘rsatishning aniq xalqaro mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Bu esa iqlim adolati tamoyilini amalda ta‘minlashga va davlatlar o‘rtasidagi majburiyatlar muvozanatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Xalqaro iqlim huquqi normalarini milliy qonunchilikka samarali implementatsiya qilish va yangi huquqiy institutlarni rivojlantirish kerak. Davlatlar xalqaro shartnomalar doirasida olgan majburiyatlarini milliy qonunchilikda aniq aks ettirishi, ayniqsa iqlim migratsiyasi, ekologik zarar uchun kompensatsiya va inson huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarni rivojlantirishi zarur. Bu iqlim o‘zgarishining nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini ham samarali tartibga solishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. United Nations Framework Convention on Climate Change. New York, 1992.
2. Kyoto Protocol to the United Nations Framework Convention on Climate Change. Kyoto, 1997.
3. Paris Agreement. Paris, 2015.
4. Stockholm Declaration on the Human Environment. Stockholm, 1972.
5. Rio Declaration on Environment and Development. Rio de Janeiro, 1992.
6. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.
7. Sands P. Principles of International Environmental Law. Cambridge University Press.

8. Birnie P., Boyle A., Redgwell C. International Law and the Environment. Oxford University Press.
9. Kiss A., Shelton D. International Environmental Law. Transnational Publishers.
10. O'zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid qonun hujjatlari.
11. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
12. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
13. Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalariga oid ilmiy maqolalar va monografiyalar.